


## YALPI HUDUDIY MAHSULOT


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yilning yanvar–martida Jizzax viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM ) hajmi joriy narxlarda 3 291,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-marti bilan taqqoslaganda 4,2 % ga o'sdi.


YaHM deflyator indeksi 2020- yil yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 113,6 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Jizzax viloyatining qo'shgan hissasi 2,6 % ga yetdi.




### Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

|   |   | Mlrd. so'm     |                | O'sish<br>sur'atlari,<br>o'tgan yilning<br>mos davriga<br>nisbatan % da |
|---|---|----------------|----------------|---|
|   |   | 2020- yil      | 2021- yil      |   |
|   | <b>I. YaHM</b>                                      | <b>2 781,2</b> | <b>3 291,2</b> | <b>104,2</b>  |
|   | <i>shu jumladan:</i>                                |                |                |   |
|  | Tarmoqlarning yalpi<br>qo'shilgan qiymati           | 2 729,5        | 3 165,8        | 104,1   |
|  | Mahsulotlarga sof soliqlar                          | 51,7           | 125,4          | 109,7   |
|   | <b>Tarmoqlarning yalpi<br/>qo'shilgan qiymati</b>   | <b>2 729,5</b> | <b>3 165,8</b> | <b>104,1</b>  |
|  | <b>Qishloq, o'rmon<br/>va baliqchilik xo'jaligi</b> | <b>1 031,0</b> | <b>1 264,1</b> | <b>101,3</b>  |
|   | <b>Sanoat (qurilishni<br/>qo'shgan holda)</b>       | <b>659,8</b>   | <b>733,5</b>   | <b>111,6</b>  |
|  | sanoat  | 401,6          | 479,6          | 116,1   |

|  |  | Mlrd. so'm     |                | O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da |
|--|--|----------------|----------------|---|
|  |  | 2020- yil      | 2021- yil      |   |
|   | qurilish   | 258,2          | 253,9          | 104,5   |
|  | <b>Xizmatlar</b>                                 | <b>1 038,7</b> | <b>1 168,2</b> | <b>102,0</b>  |
|   | savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 240,3          | 265,9          | 97,7  |
|   | tashish va saqlash, axborot va aloqa             | 143,2          | 167,5          | 106,0   |
|  | boshqa xizmat tarmoqlari                         | 655,2          | 734,8          | 102,7   |

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 2 328,4 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 % ga yuqoridir.




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo`shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 96,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,8 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o`rmon va baliqchilik xo`jaligining YaHMning tarmoqlar bo`yicha tarkibidagi ulushi 39,9 % ni, sanoat tarmog`i 15,1 % ni, qurilish 8,0 % ni va xizmatlar sohasi 37,0 % ni tashkil qildi.




## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha YaHM tarkibi (jamiqa nisbatan % da)

|   |   | 2020-yil     | 2021-yil     |
|---|---|--------------|--------------|
|   | <b>I. YaHM, jami</b>                              | <b>100,0</b> | <b>100,0</b> |
|   | <i>shu jumladan:</i>                              |              |              |
|   | Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati            | 98,1         | 96,2         |
|  | Mahsulotlarga sof soliqlar                        | 1,9          | 3,8          |
|   | <b>II. Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati</b> | <b>100,0</b> | <b>100,0</b> |
|  | <b>Qishloq, o`rmon va baliqchilik xo`jaligi</b>   | <b>37,8</b>  | <b>39,9</b>  |
|   | <b>Sanoat (qurilishni qo`shgan holda)</b>         | <b>24,2</b>  | <b>23,1</b>  |
|  | sanoat  | 14,7         | 15,1         |
|  | qurilish  | 9,5          | 8,0          |
|   | <b>Xizmatlar</b>                                  | <b>38,0</b>  | <b>37,0</b>  |
|  | savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar  | 8,8          | 8,4          |
|  | tashish va saqlash, axborot va aloqa              | 5,2          | 5,3          |
|  | boshqa xizmat tarmoqlari                          | 24,0         | 23,3         |




**Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiqa nisbatan % da)**

2020- yil





2021- yil



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 101,3 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 39,9 %), sanoatda – 116,1 % (15,1 %), qurilishda – 104,5 % (0,8 %), xizmatlar sohasida – 102,0 % ni (37,0 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 97,7 % (8,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 106,0 % (5,3 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,7 % dan (23,3 %) iborat bo'ldi.




**Yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari**  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



YaHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,5 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 1,4 f.p.), sanoat tarmog'i – 2,3 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 0,9 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,4 f.p. (2020- yil yanvar-martida salbiy – 0,1 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 0,8 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 2,1 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YaHM 0,2 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 0,3 f.p.) ga oshgan.




## 2021- yil yanvar-mart oylarida YaHM o'sishida tarmoqlarning hissi (jamiqa nisbatan % da)




2021-yil yanvar-martda YaHM deflyatori indeksi 2020-yil yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 113,6 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari o'rmon va baliq xo'jaligida - 121,0 % va xizmatlarda – 110,2 % qayd etildi.



## Yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



## Yanvar-mart oylarida YaHMda kichik biznesning ulushi (jamiga nisbatan %da)



2021- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 74,1 % ni tashkil qildi (2020- yil yanvar-martida – 74,4 %).

YaHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining ko'payishi bilan izohlanadi.

Jizzax viloyati statistika boshqarmasi Statistika faoliyatini tashkil etish va yig'ma axborot-tahliliy ishlari bo'limi Tel.: (72) 221-53-51